**Аннотация:** В данной статье проанализированы необходимость цифровизации «зелёного» кредитования в Республике Узбекистан на основе онлайн-систем коммерческих банков и направления его совершенствования. На основе нормативно-правовых документов, зарубежных и отечественных исследований, а также результатов социологического опроса с помощью SWOT-анализа выявлены сильные и слабые стороны, возможности и угрозы системы зелёного кредитования. Кроме того, показаны ограничения, связанные с офлайн-форматом предоставления зелёных кредитов, и предложены меры по оптимизации процессов, повышению осведомлённости населения и снижению финансовой нагрузки путём внедрения цифровых платформ.

**Ключевые слова:** зелёное кредитование, коммерческие банки, онлайн-системы, цифровизация, возобновляемые источники энергии, SWOT-анализ, направления развития.

## KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank-moliya tizimi jadal raqamli transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Tijorat banklari faoliyatining deyarli barcha yo‘nalishlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi moliyaviy xizmatlarning tezkorligi va qulayligini oshirish bilan birga,

aholining ularni qamrab olish darajasini ham kengaytirmoqda. Xususan, masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar, internet-banking platformalari va onlayn kreditlash mexanizmlarining rivojlanishi mijozlar ehtiyojiga moslashuvchanlikni kuchaytirib, raqobatni oshirmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosati kuchayib borayotgani bank sektoridan ham ekologik yo‘naltirilgan moliyaviy mahsulot va xizmatlarni kengaytirishni taqozo etmoqda.

“Yashil kreditlash” — ekologik barqarorlikni ta‘minlovchi loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan maxsus kreditlash amaliyoti bo‘lib, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash orqali tadbirkorlik subyektlari hamda jismoniy shaxslarga moliyaviy ko‘mak ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil kreditlash hajmini oshirishda nafaqat moliyaviy resurslarni taqdim etish, balki ushbu jarayonni raqamli texnologiyalar orqali to‘liq integratsiyalash ham hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamlashtirilgan platformalar ekologik loyihalarni tezkor baholash, ularning samaradorligini monitoring qilish, moliyaviy oqimlar shaffofligini ta‘minlash hamda resurslardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish imkonini beradi.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish hamda mamlakatni yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tkazish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori [1] qabul qilingan. Mazkur qaror yashil va inklyuziv iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslardan oqilona foydalanish va tejamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda yashil kreditlashni rivojlantirish, yashil investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim normativ-huquqiy asos yaratilgan.

Shuningdek, uy-joy sohasidagi islohotlarni samarali tashkil etish, “Yangi O‘zbekiston” massivlarida va zamonaviy ko‘p kvartirali uylar qurilishini kengaytirish, ipoteka kreditlari bozorini rivojlantirish hamda tijorat banklari tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan ajratilgan kreditlarni qayta moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-aprelda PF-70-son Farmoni [2] qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq, 2025-yildan boshlab qurilish tashkilotlari yashil uy-joy standartlariga mos ko‘p kvartirali uy-joylar qurish uchun, shuningdek, jismoniy shaxslarga ushbu standartlarga javob beradigan uy-joylarni xarid qilish uchun ipoteka kreditlarini ajratish tartibi belgilangan. Bu esa aholining yashil standartlarga mos uy-joylarga bo‘lgan talabini moliyaviy rag‘batlantirish hamda ipoteka bozorini kengaytirish orqali ekologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda tijorat banklari ekologik yo‘naltirilgan kredit liniyalarini joriy etish bilan birga, ushbu jarayonni raqamli platformalar asosida takomillashtirishga ham intilmoqda. Biroq, aholining bunday moliyaviy mahsulotlar bo‘yicha xabardorlik darajasi, foydalanish imkoniyatlari, shuningdek onlayn tizimlar qulayligi va ishonchligi bilan bog‘liq qator muammolar mavjud. Shu sababli, aholining yashil kreditlash tizimiga bo‘lgan munosabatini, ularning ehtiyoj va talablarini hamda mavjud onlayn mexanizmlar samaradorligini chuqur o‘rganish zarurati dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur ilmiy tadqiqotning maqsadi — tijorat banklarining onlayn tizimlari asosida yashil kreditlash jarayonini raqamlashtirishning zaruriyati va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash hamda aholining ushbu jarayon bo‘yicha fikr-mulohazalarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari nafaqat aholining yashil kreditlashga bo‘lgan qiziqishi va ishonch darajasini baholashga, balki ushbu xizmatlarni takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga ham imkon beradi. Bunday yondashuv tijorat banklari uchun raqamli transformatsiya jarayonida ekologik yo‘naltirilgan moliyaviy mahsulotlarni yanada rivojlantirish, moliya tizimining barqarorligini oshirish va mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga ko‘maklashishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari va ekologik barqarorlik masalalarining integratsiyasi xalqaro moliyaviy tadqiqotlar hamda milliy iqtisodiy siyosatlarda dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Bu jarayonda “yashil kreditlash” kontseptsiyasi keng o‘rganilib, bank tizimlarining ekologik mas‘uliyatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish hamda barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, onlayn bank xizmatlari va raqamli platformalarning joriy etilishi kreditlash jarayonlarini soddalashtirish, monitoring qilish va shaffoflikni ta‘minlash imkonini bermoqda. Mazkur jarayonlarning amaliy ahamiyatini yoritishda mahalliy va xorijiy olimlar ham o‘z ilmiy izlanishlarida muhim xulosalarga kelishgan.

Mahalliy olimlarimizdan N.B. Aliqulova [3] o‘zining “O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish ustuvor yo‘nalishlari va yashil loyihalarni moliyalashtirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida: “Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan yashil loyihalarni moliyalashtirish — bu nafaqat moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish vositasi, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ekologik samaradorlikni oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim omildir”, — deb ta‘kidlab o‘tgan.

I.A. Sherxonov [4] “Banklarning yashil iqtisodiyotdagi roli” mavzusidagi ilmiy maqolasida: “Yashil kreditlar banklar tomonidan ekologik toza va barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiyani samarali ishlatish hamda yashil qurilish kabi yo‘nalishlarga yo‘naltiriladi. Mazkur kreditlar orqali banklar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga ham hissa qo‘shadi”, — deya fikr bildiradi.

Shuningdek, I.X. Kamilova [5] “Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida: “Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan yashil kreditlar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, biroq bu o‘ssish hali barqaror tizim shakllanayotganini anglatmaydi. Kreditlar asosan energetika va energiya samaradorligi sohaslariga yo‘naltirilgan, boshqa ekologik loyihalar esa yetarli darajada qamrab olinmagan”, — deya ta‘kidlaydi.

Mahalliy olimlar tomonidan banklarning ekologik yo‘nalishdagi kredit mahsulotlari joriy etilayotgani qayd etilsa-da, ushbu mahsulotlarning aksariyati hali rivojlanish bosqichida bo‘lib, ilmiy tahlillarda keng yoritilmagan. Amaldagi tadqiqotlar ko‘proq foiz stavkalari, kredit muddatlari va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlariga qaratilgan bo‘lib, texnologik asoslar hamda raqamli integratsiya jihatlari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Xorijiy olimlar W. Sutrisno, A. Widarjono va A. Hakim o‘zlarining [6] “The Role of Green Credit in Bank Profitability and Stability” mavzusidagi ilmiy tadqiqotida Indoneziya banklari misolida yashil kreditlarning bank rentabelligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini, biroq ularning moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmasligini aniqlashgan. Ushbu natija shuni ko‘rsatadiki, yashil kredit dasturlari banklar uchun daromad manbai bo‘lishi mumkin, ammo ularni barqarorlik nuqtai nazaridan qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha monitoring va risk-boshqaruv mexanizmlari zarur.

Shuningdek, J.E. Galán [7] o‘zining “Green Light for Green Credit? Evidence from its Impact on Bank Efficiency” mavzusidagi ilmiy tadqiqotida turli bank turlari kesimida yashil kreditlarning samaradorlikka ta‘sirini o‘rganib, umuman olganda, yashil kreditlar bank samaradorligini pasaytirishi mumkinligini, biroq ushbu ta‘sir banklarning xususiyatlariga qarab heterojen xarakter kasb etishini aniqlagan. Bu topilma raqamlashtirish va jarayonlarni optimallashtirish orqali yashil kreditlarning operatsion xarajatlarini kamaytirish muhimligini bildiradi — ya‘ni onlayn tizimlar samaradorlikni tiklashda kalit bo‘lishi mumkin.

K. Kedward, D. Gabor va J. Ryan-Collins o‘zlarining “Carrots with(out) Sticks: Credit Policy and the Limits of Green Central Banking” mavzusidagi ilmiy tadqiqotida markaziy banklar hamda hukumat aralashuvlari orqali yashil kreditlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini tahlil qilib, unda rag‘bat va majburiy choralar doirasining chegaralari hamda moliyaviy siyosatning texnik va strukturaviy cheklovlarini yoritib berilgan. Bu ish siyosatdonlar uchun muhim — banklar va markaziy banklarning rolini belgilashda raqamli yechimlar orqali transaksionalarni shaffolashtirish va ma‘lumot almashinuvini kuchaytirish zarurligini ta‘kidlaydi.

Xorijiy tadqiqotlar yashil kreditlashning banklar foydasi, samaradorligi, barqarorlikka ta‘siri va siyosat mexanizmlarini batafsil tahlil qilgan bo‘lsa-da, natijalar ba‘zan qarama-qarshi bo‘lishi mumkinligi (masalan, ayrim bank turlarida salbiy ta‘sir) aniqlangan. Xalqaro tajribadan ko‘rinib turganidek, yashil kreditlash strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nafaqat kredit berish, balki monitoring tizimlarini raqamlashtirish, risklarni baholash algoritmlari, shaffoflik va ma‘lumot almashinuvi mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida “yashil” kreditlashni, xususan tijorat banklarining onlayn tizimlari asosida raqamlashtirish zaruratini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni huquqiy-tahliliy usulda o‘rganildi. Ikkinchidan, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida yashil kreditlashning samaradorligi hamda bank faoliyatiga ta‘siri qiyosiy tahlil qilindi. Uchinchidan, tijorat banklarining amaldagi kreditlash amaliyoti bo‘yicha mavjud raqamlar va ma‘lumotlar tizimli tahlil usuli bilan qayta ishlanib, SWOT tahlil metodi orqali kuchli va zaif jihatlar, imkoniyatlar va xavflar aniqlab berildi. Shu asosda muammolarni bartaraf etish va istiqboldagi rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida aholining qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ushbu qurilmalarni xarid qilish uchun ajratiladigan moliyaviy resurslarni samarali boshqarish maqsadida, 2023-yil 29-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 517-son qarori [9] bilan “Yashil iste’mol krediti bo‘yicha foiz to‘lovlarining bir qismini qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlandi. Mazkur Nizom qayta tiklanuvchi energiya manbalarini aholiga keng joriy etish, moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini huquqiy asosda mustahkamlash va kreditlash tizimini samarali boshqarish bo‘yicha muhim hujjat sifatida qaraladi.

Nizomga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan jismoniy shaxslarga tijorat banklari orqali ajratiladigan yashil iste’mol kreditlari bo‘yicha foiz to‘lovlarining ma’lum qismini qoplash mexanizmi ishlab chiqildi. Mazkur mexanizm nafaqat energiyani tejaydigan texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni tizimli ravishda rag‘batlantirishga, balki aholining moliyaviy yukini pasaytirish orqali yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonida xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga ham qaratilgan.

Shuningdek, ushbu mexanizm ekologik barqaror rivojlanishni ta’minlashda, xususan uy xo‘jaliklarida energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini keng joriy etishda moliyaviy ko‘mak vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamg‘arma tomonidan qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravaridan oshmagan yashil iste’mol kreditlari bo‘yicha foiz stavkasining Markaziy bankning asosiy stavkasidan ortiq, biroq 5 foizlik baddan oshmagan qismini qoplab berish uchun uch yilgacha kompensatsiya ajratilishi belgilangan. Bu esa tijorat banklari uchun kredit portfellarini diversifikatsiya qilish va risklarni kamaytirish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining barcha tijorat banklari barqaror daromad manbaiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda energiya tejamkor texnologiyalarni xarid qilishni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi imtiyozli kreditlash mexanizmini joriy etdi. Mazkur mexanizm quyosh fotoelektr stansiyalari, quyosh suv isitkichlari, shamol generatorlari, quvvati 1 MVt gacha bo‘lgan mikro va kichik gidroelektrostansiyalar, biogaz ishlab chiqaruvchi uskunalari, energiya saqlash tizimlari hamda maishiy energiya samarador gaz-gorelkalari va qozonlarni sotib olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu kreditlash dasturi yillik 20 foizlik stavka asosida 60 oygacha bo‘lgan muddatda, bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravaridan 500 baravarigacha bo‘lgan miqdorda moliyaviy resurs ajratish imkoniyatini nazarda tutib, aholining ekologik toza texnologiyalarga bo‘lgan talabini kuchaytirish, ularning moliyaviy yukini kamaytirish hamda mamlakatda yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonini jadallashtirish uchun keng sharoit yaratildi.

Biroq amaldagi amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu yashil iste’mol kreditlari asosan an’anaviy, ya’ni oflayn tartibda ajratilmoqda. Bu esa bir tomondan ariza topshirish, hujjatlarni yig‘ish va tasdiqlash jarayonlarini cho‘zib yuborib, aholining kredit olishdagi vaqt va xarajatlarini oshirsa, ikkinchi tomondan ushbu moliyaviy mahsulotlar haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmagan keng qatlam fuqarolar uchun imkoniyatlarni keskin cheklab qo‘ymoqda. Natijada, mavjud imtiyozli shartlar va kompensatsiya mexanizmlaridan xabarsiz bo‘lgan jismoniy shaxslar qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini xarid qilish uchun moliyaviy ko‘makdan foydalana olmay qolish ehtimoli yuqori bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari faoliyatida yashil kreditlash jarayonlarini onlayn tizimlar orqali kengaytirish va raqamlashtirish zaruriyati keskin dolzarblashmoqda. Raqamli platformalar kredit arizalarini masofadan turib qabul qilish, avtomatlashtirilgan scoring asosida qaror qabul qilish, kompensatsiya va monitoring jarayonlarini shaffof yuritish imkonini beradi. Bundan tashqari, mobil ilovalar va internet-banking interfeyslari orqali aholiga tezkor ma’lumot yetkazish, kredit shartlari va imtiyozlar haqida interaktiv maslahatlar berish, ekologik toza texnologiyalarni xarid qiluvchi mijozlarni doimiy kuzatib borish va ular bilan ikki tomonlama aloqani kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur yondashuv nafaqat banklar uchun operatsion xarajatlarni kamaytirish va kredit portfellarini diversifikatsiya qilishga, balki aholining yashil moliyaviy mahsulotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga, shuningdek davlat tomonidan belgilangan yashil iqtisodiyot strategiyasini izchil amalga oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, tijorat banklari onlayn tizimlari asosida yashil kreditlashni raqamlashtirish ekologik barqarorlik va moliyaviy inklyuziyani ta’minlash borasida muhim strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Tijorat banklarining onlayn tizimlari asosida yashil kreditlashni raqamlashtirish zarurati nafaqat aholining ushbu kreditlardan xabardorlik darajasini oshirish, balki moliyalashtirish jarayonida shaffoflik, tezkorlik va qulaylikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonning kuchli va zaif tomonlari, shuningdek imkoniyat va tahdidlarini tizimli baholash maqsadida SWOT tahlil o‘tkazildi.

1-jadval. SWOT TAHLIL NATIJALARI

| Aspekt                       | Mazmuni                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Kuchli tomonlar (Strengths)  | <ul style="list-style-type: none"> <li>– Kreditlash jarayonida onlayn tizimlarning joriy etilishi orqali tezkorlik va operativlik oshadi;</li> <li>– Mijozlarning geografik joylashuvidan qat'i nazar, arizalarni qabul qilish imkoniyati yaratiladi;</li> <li>– Shaffoflik va nazorat mexanizmlari kuchayadi;</li> <li>– Banklar uchun ma'lumotlarni raqamli tahlil qilish imkoniyati kengayadi.</li> </ul> |
| Zaif tomonlar (Weaknesses)   | <ul style="list-style-type: none"> <li>– Dastlabki bosqichda texnik infratuzilmani rivojlantirish uchun katta investitsiya talab etiladi;</li> <li>– Aholining ayrim qatlamlarida raqamli savodxonlik pastligi jarayonni cheklab qo'yishi mumkin;</li> <li>– Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarur bo'ladi.</li> </ul>                                   |
| Imkoniyatlar (Opportunities) | <ul style="list-style-type: none"> <li>– Aholi orasida yashil kreditlardan xabardorlikni oshirish va ulardan foydalanish ko'lamini kengaytirish;</li> <li>– Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish;</li> <li>– Onlayn platformalar orqali turli moliyaviy xizmatlarni integratsiya qilish imkoniyati.</li> </ul>                                         |
| Tahdidlar (Threats)          | <ul style="list-style-type: none"> <li>– Raqamli tizimlarga nisbatan kiberhujumlar xavfining ortishi;</li> <li>– Internet qamrovining pastligi yoki beqarorligi kreditlash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;</li> <li>– Normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada moslashmagani joriy etilayotgan tizim samaradorligini pasaytirishi ehtimoli bor.</li> </ul>                                    |

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida yashil kreditlash amaliyotini raqamlashtirish jarayoni moliya bozorida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beradi. Onlayn platformalar orqali imtiyozli kreditlarni ajratish tizimining joriy etilishi nafaqat aholiga ekologik toza energiya manbalari va energiya samarador texnologiyalarni xarid qilishda qulaylik yaratadi, balki banklarning moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini ham oshiradi. Biroq, ushbu tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun uning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek undan kelib chiqadigan imkoniyat va tahdidlarni chuqur tahlil qilish zarur. SWOT tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasida muhim o'rin tutadi.

**Kuchli tomonlar.** Raqamlashtirilgan yashil kreditlash tizimining eng katta afzalliklaridan biri uning hududiy qamrovi kengligi va arizalarni masofadan turib qabul qilish imkoniyatidir. Bu, ayniqsa, uzoq tuman va qishloqlarda yashovchi aholiga bank xizmatlarini tezkor va arzon tarzda yetkazib berishga sharoit yaratadi. Shuningdek, kreditlash jarayonida shaffoflik oshadi, korrupsiyaviy xavflar kamayadi va banklar uchun mijozlar bazasi bo'yicha katta hajmdagi raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Natijada, risklarni boshqarish, kredit portfellarini diversifikatsiya qilish va qaror qabul qilish sifatini oshirish imkoniyati kengayadi.

**Zaif tomonlar.** Shu bilan birga, tizimni raqamlashtirish dastlabki bosqichda katta moliyaviy va tashkiliy xarajatlarni talab qiladi. Texnik infratuzilmani yangilash, xodimlarni tayyorlash, IT-xavfsizlikni kuchaytirish kabi yo'nalishlar banklar zimmasiga qo'shimcha yuk yuklaydi. Aholining ayrim qatlamlarida raqamli savodxonlikning yetarli emasligi ham tizimdan keng foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin. Bundan tashqari, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoyalashga doir talablar ham yuqori bo'lib, banklardan doimiy nazoratni talab etadi.

**Imkoniyatlar.** Raqamli platformalar yordamida yashil kreditlash bozorida aholining xabardorlik darajasi oshadi, xizmat ko'rsatish tezligi va sifatini yaxshilash mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini xarid qilayotgan aholining moliyaviy yukini kamaytirib, ularni barqaror rivojlanishga jalb etadi. Shuningdek, onlayn tizimlar yordamida banklar turli moliyaviy mahsulotlarni birlashtirib, xususiy sektorni jalb etish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. Yashil kreditlashning raqamlashtirilishi nafaqat bank tizimi samaradorligini oshiradi, balki mamlakatda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning moliyaviy mexanizmlarini ham mustahkamlaydi.

**Tahdidlar.** Shu bilan birga, kiberhujumlar xavfining ortishi, internet infratuzilmasining ba'zi hududlarda yetarli emasligi va normativ-huquqiy bazaning yangi sharoitlarga tezkor moslashmaganligi tizimning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bunday xavflarni kamaytirish uchun banklar va davlat organlari o'rtasida axborot xavfsizligi, ma'lumotlarni shifrlash va foydalanuvchilarning huquqiy himoyasini ta'minlash bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

SWOT tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida yashil kreditlashni onlayn tizimlar asosida raqamlashtirish jarayoni kuchli tomonlar va katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, mavjud zaiflik va tahdidlarni oldindan aniqlab, samarali choralar ko‘rilsa, ushbu mexanizm O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tezlashtiruvchi muhim moliyaviy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Bunda aholining xabardorligini oshirish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish va IT-infratuzilmani mustahkamlash jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun asosiy shartlardan biri bo‘lib qoladi.

Takliflar:

Tijorat banklarining onlayn tizimlari asosida yashil kreditlash mexanizmining yanada samarali ishlashini ta’minlash va aholi hamda xususiy sektor uchun kengroq imkoniyatlar yaratish maqsadida quyidagi rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq:

1. Raqamli infratuzilmani takomillashtirish. Banklarning ichki axborot tizimlari, mobil ilovalari va internet-banking platformalarini energiya samarador texnologiyalarni xarid qilishga mo‘ljallangan kredit mahsulotlari bilan integratsiya qilish zarur. Bu nafaqat arizalarni tezkor qabul qilish va ko‘rib chiqish jarayonini avtomatlashtiradi, balki kredit olishda hududiy farqlarni kamaytiradi.

2. Axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish. Kiberxavfsizlik standartlarini joriy etish, foydalanuvchi ma’lumotlarini shifrlash va milliy darajada yagona himoya platformalarini yo‘lga qo‘yish tizimning barqaror ishlashi uchun muhim shartlardan biridir.

3. Aholining xabardorligini oshirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish. Yashil kreditlashning onlayn mexanizmlari bo‘yicha keng ko‘lamli targ‘ibot va o‘quv dasturlarini tashkil etish orqali aholining bu xizmatlardan xabardorligi hamda ulardan foydalanish malakasi oshiriladi. Bu, ayniqsa, qishloq joylardagi iste’molchilar uchun dolzarbdir.

4. Banklararo va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish. Tijorat banklari, Energetika vazirligi va boshqa tegishli tashkilotlar o‘rtasida raqamli ma’lumot almashish tizimini yaratish, subsidiya va kompensatsiya mexanizmlarini avtomatlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi.

5. Innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish. Yashil kreditlarni mikromoliyalashtirish, lizing asosida moliyalashtirish yoki blokcheyn texnologiyasi asosidagi shaffof monitoring tizimlarini yaratish orqali xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish va investitsiya jalb qilish imkoniyati ortadi.

6. Normativ-huquqiy bazani raqamli xizmatlarga moslashtirish. Kreditlash jarayonini tezlashtiruvchi, elektron imzo va elektron shartnomalar asosida ishlovchi yuridik mexanizmlarni takomillashtirish orqali tizimning huquqiy poydevori mustahkamlanadi.

7. Bank xodimlari uchun maxsus tayyorlov dasturlarini joriy etish. Yashil kreditlashning raqamli formatini samarali boshqarish bo‘yicha xodimlarni muntazam malaka oshirish kurslari va treninglarga jalb etish ularning kasbiy salohiyatini oshiradi.

8. Monitoring va baholash tizimini kuchaytirish. Onlayn kreditlash tizimi orqali berilgan mablag‘larning real samaradorligini, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining joriy etilish darajasini hamda ekologik natijalarni o‘lchab boruvchi indikatorlar ishlab chiqilishi zarur.

Ushbu rivojlantirish yo‘nalishlari tijorat banklarida yashil kreditlashni raqamlashtirish jarayonini yanada tizimli va barqaror shaklga keltiradi. Natijada aholining ekologik toza texnologiyalarga bo‘lgan talabini qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy yukni kamaytirish va O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tishini jadallashtirish uchun keng sharoit yaratiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-aprelda “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-70-son farmoni.
3. Aliqulova N.B. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish ustuvor yo‘nalishlari va yashil loyihalarni moliyalashtirish. Moliya va bank ishi jurnali, 2024-yil, 2-son, 13–18-betlar.
4. Sherxonov I.A. Banklarning yashil iqtisodiyotdagi roli. Scientific Journal of Construction and Education, ISSN 2181-3779, 2025-yil, Vol. 4, Issue 1, 314–320-betlar.
5. Kamilova I.X. Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-ommabop jurnal, 2025-yil, may, 5-son, 1373–1377-betlar.
6. Sutrisno W., Widarjono A., Hakim A. The Role of Green Credit in Bank Profitability and Stability. Risks, 2024, 12(12):198. DOI: 10.3390/risks12120198
7. Galán J.E. Green light for green credit? Evidence from its impact on bank efficiency. International Journal of Finance & Economics, 2024, 29(1), 531–550. DOI: 10.1002/ijfe.2697

8. Kedward K., Gabor D., Ryan-Collins J. Carrots with(out) sticks: Credit policy and the limits of green central banking. Review of International Political Economy, 2024, Vol. 31, No. 5, 1593–1617. DOI: 10.1080/09692290.2024.2351838
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi "Yashil iste'mol krediti bo'yicha foiz to'lovlarining bir qismini qoplab berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 517-son qarori.



**TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

# **IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI**

**YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT**

**Ilmiy elektron jurnal**

**(MAXSUS SON)**

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani  
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

**1st CONFERENCE:**  
DIRECTIONS FOR ENSURING  
SUSTAINABLE ECONOMIC  
GROWTH IN THE CONTEXT OF  
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

**2030**  
**UZBEKISTAN**  
**STRATEGY**

BANK-MOLIYA TIZIMI  
VA XUSUSIY SEKTORNI  
RIVOJLANTIRISH  
YO'NALISHLARI



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: [sq1141983@gmail.com](mailto:sq1141983@gmail.com)

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: [https://t.me/taraqqiyot\\_va\\_talim\\_uz](https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz)

ISBN 978-9910-8110-8-1



- ARTIFICIAL INTELLIGENCE  
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND  
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT  
OF THE ECONOMY

**2nd CONFERENCE:**  
BANKING AND  
FINANCIAL SYSTEM AND  
DIRECTIONS FOR DEVELOPING  
THE PRIVATE SECTOR

**23-24 2025**  
**OCTOBER**

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda  
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro  
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

**СТРАТЕГИЯ**  
**«УЗБЕКИСТАН – 2030»**

**strategy2025.tsue.uz**

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH  
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY  
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

**2030**

CONFERENCE "GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC  
TRENDS"

**23-24 2025**  
**OCTOBER**

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda  
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro  
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS

**23-24**

**2030**  
**UZBEKISTAN**  
**STRATEGY**

**23-24**  
**OCTOBER**  
**2025**

**1st CONFERENCE:**  
DIRECTIONS FOR ENSURING  
SUSTAINABLE ECONOMIC  
GROWTH IN THE CONTEXT OF  
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

**UZBEKISTAN**  
**STRATEGY**  
**23-24 OCTOBER**

**IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI:**  
**"O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI**

**23-24**  
**OKTYABR**

**"YASHIL IQTISODIYOT**  
**VA TARAQQIYOT"**

